

---

# DAVLAT E'TIBORI ASOSIDA UCH NAFAR SO'XLIK AYOLLAR UMRA ZIYORATINI ADO ETIB KELDILAR



## Davlat e'tibori asosida uch nafar So'xlik ayollar umra ziyoratini ado etib keldilar

Har bir musulmon banda umrida Haj ziyoratini ado qilishni albatta orzu qiladi. Fuqarolarimizning bunday ezgu niyat va orzulari bugun davlatimiz rahbari e'tibori asosida ushalmoqda. Bu albatta, inson qadri ulug'ligi va fuqarolarimiz manfaati yuksakligidan dalolatdir. Insonga bo'lgan yuksak e'tibor bugun orzular ruyobining asosiy omili bo'lib xizmat qilayotir.

O'zbekiston Respublikasi din ishlari bo'yicha qo'mitaning So'x tumani vakili Tojiboy Dodoboyevning so'zlariga ko'ra, bunday ulug' baxtga tumanimizdan uch nafar nuroniy onaxonlarimiz muvaffaq bo'ldilar. Bevosita davlatimiz rahbari e'tibori asosida ular umra ziyoratini ado etib keldilar.

Bunday baxtli insonlarning biri tumanimizning Chumoqcha mahallasida istiqomat qiladilar. Laylixon G'iyosova bir umr hajga borishni, muqaddas Ka'batullohni ziyorat qilishni niyat qilganlar. Umra ziyoratidan qaytgan opaning xonadonida bo'ldik.

- Taassurotlarim bir olam. Armonim yo'q. Buning hammasi Prezidentimizning e'tibori, ularning biz kabi insonlarga bo'lgan g'amxurligi natijasidir. Bunday e'tibor va g'amxurlik uchun davlatimiz rahbariga cheksiz minnatdorchilik bildiraman. Davlat hisobidan, bepul haj ziyoratini ado etish barchaga ertakdek tuyuladi. Bunday imkoniyat bizning Vatanimiz, yangi O'zbekistonda bor xolos, - deya duoga qo'l ochdi Laylixon-opa.

Darhaqiqat, bugun "inson qadri uchun" degan tamoyil amalda o'z isbotini topmoqda. Aslida, inson qadrini ulug'lash, ayniqsa, kam ta'minlangan va ehtiyojmand fuqarolarni qo'llab-quvvatlash odamiylikning eng oliy mezonini sanaladi. Bu mezon bizning davlatimizda qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

## So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



### [Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-06 17:09:59